

## **Shaxmat - mantiq va falsafa fani**

Hind hikmatlarida shaxmatning o'zi hayot falsafasi va ikki davlat orasidagi munosabatlar timsoli sifatida izohlangan. Shunday ekan, aql-idrok, mantiqiy mushohada shaxmat va shashkada muvaffaqiyat quchishining muhim garovi ekanini bilish ahamiyatlidir.

"Jahon falsafa kuni"ga bag'ishlangan 2 - TTJda "GIM" fakulteti "Gumanitar fanlar" kafedrasini tashabbusi bilan 2, 3 -TTJlarda istiqomat qiladigan talabalar va institut qoshidagi akademik litsey yotoqxonasida yashovchi barcha fakultet talabalari -o'g'il bolalar hamda qizlar o'rtasida shaxmat va shashka o'yini bo'lib o'tdi.

Shaxmat bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida "Yef va Yek" fakulteti 212 - guruh talabasi Sardor O'rolov birinchi o'rini egalladi. Shashka bo'yicha qizlar o'rtasidagi birinchi o'rin esa "GM" fakulteti 209 - guruh talabasi Mahbuba Tojievaga nasib etdi. Musobaqa yakunida o'yin natijasiga qarab faxriy yorliq va esdalik sovg'alari va kitoblar taqdim etildi.



**"Gumanitar fanlar" kafedrasining assistenti Bahriiddin Muqimov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**